

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KAMTARLIKKA O'RGATISHDA ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINI AHAMIYATI

Avezova Mastura

Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi

Axmedova Gulnoza

Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotasiya: *Bola go'yoki oppoq hech narsa yozilmagan qog'ozga o'xshaydi. Unga qanday narsalarni yozish biz kattalar qo'lida. Albatta bola tarbiyasi bugungi kundagi eng muhim ma'suliyatli ishlardan biri hisoblanadi. Biz bola tarbiyasini albatta erta boshlashimiz kerak bo'ladi. Bunda bir donishmand kelib Abu Ali Ibn Sinodan so'rabbdilar. Men farzandli bo'ldim unga necha yoshidan tarbiya berib boshlay desalar, Ibn Sino afsuski juda kech qolibszlar. Negaki bola ona qornida paydo bo'lganidan boshlab unga tarbiya berish lozim deb aytib o'tgan. Albatta bu juda ham to'g'ri. Shunday ekan bola birinchi tarbiyani ota-onada oladi va keyin maktabgacha ta'lim muassasalaridan olib murakkabroq hayotga qadam bosadi. Albatta biz bolalarga nima orqali tarbiya beramiz degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga javoban bizning katta merosim ya'ni ota-bobolarimiz, adiblarimiz asarlari, go'zal satrlari orqali ularni maktabgacha ta'limda qo'llash orqali amalga oshirib boramiz. Ushbu maqolada ham Erkin Vohidov she'rlarini bola uchun ahamiyatini, qanday sifatlarini shakllantirishini ko'rib chiqamiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'llash usullarini o'rganamiz.*

Kalit so'zlar: *kamtarlik, vatan, bola, tarbiya, ta'lim, Erkin Vohidov, Abu Ali Ibn Sino.*

Bilamizki, bola hayotida oiladan tarbiya oladi. Dastlab oilada ota-onasidan tarbiya olib ularni xatti-harakatlarini o'zlashtirib boshlaydi. O'zlashtirgan harakatlarini tashqariga ya'ni boshqa muhitga ko'rsatadi. So'ng unda tashqi muhitdan ham tarbiya olish jarayoni sodir bo'ladi. Natijada bola uydagi va tashqi muhitdagi tarbiyani birlashtirgn holatda o'zida boshqacha tarbiya xulq atvor hosil bo'ladi. Ba'zi holatlarda yomon xulqli bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun bolaga oiladami yo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya berishda hech qachon xato qilmaslik kerak. Hozirgi kunda malakali kadrlar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida adiblarni yozib qoldirgan adabiy merosidan foydalangan holatda tarbiya berib kelinmoqda. Jumladan shuni aytish kerakki, Erkin Vohidov o'z hayotida ko'plab she'rlari va dostonlari bilan butun dunyoga tanilgan adibdir. U o'zining hayoti davomida boshidan kechirgan voqealarni birlashtirgan holatda o'z ijodiy namunalarni yaratgan. Hozirda biz ko'rib chiqadigan she'r ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga taalluqli bo'lib, undan bemalol foydalansa bo'ladi.

Kamtarlik haqida

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,

Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bol, hatto bir qadam
Otma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning uchun
O'par doim peshonasidan.

Bu go'zal satrlarda qanchadan qancha ma'nolar bor. Kamtarlik bu ezgu niyatlilik, odamiylik, xushmuomalalik, bag'ri kenglik, izzat-ikromni bilishlik, do'stlari va umuman o'zgalarning qadriga yetishlik, hurmat qila olishlik, manaviy poklik... demakdir.

Xalq og'zaki ijodi odobnomasida kamtarlikning foydasi, inson uchun qusur hisoblangan manmanlikning zararli oqibatlari hayotiy voqea va ibratomuz tasvirlar vositasida tola-to'kis aks ettirilgan.

Kamtarlikni o'ziga libos qilib olgan insonlar hayotdagi eng yaxshi, sof vijdonli kishilar bo'lib, har qanday sharoitda, har qanday lavozimda to'g'ri va haqqoniy yo'l tutadilar, to'g'ri so'zlab, to'g'ri yuradilar, olijanob va rahm-shafqatli, hamma ishni saranjom, osoyishta bajaradilar. Manmanlikka, dabdababozlikka, mubolaga, borttirishlarga, yo'lg'on-yashiqqa yo'l qo'ymaydilar.

E'tibor bering-a, mana xalqimiz kamtarlik to'g'risida nima deydi:

“Yoq narsa ham bor bolur, Sen kamtar bolsang.
Bor narsa ham yoq bolur, Sen manman bolsang”.

Yoshlikdan kamtarinlik libosini kiygan kishi keyinchalik ham qoqilmaydi, tobora kamol topa boradi. Luqmoni Hakim shunday deydi:

“Mag'rurlik-aqlsizlik alomatidir. Kibrlanish, mag'rurlanish insonni halokatga soladi. Mag'rur kishilar jamiyat g'azabiga duchor boladilar. Garchi mag'rur, takabbur kishilar boy, olim, mansabdor esalarda, jamiyat o'rtasida hech obro'lari, qadrlari bo'lmaydi. Ularning haqiqiy do'sti, ulfati bo'lmaydi, borlari ham boshiga yomon kun tushganda asqotmaydilar. Oxir oqibat ular xo'rlik, yolg'izlikda yashashga mahkumdirlar.”

Kishilar hadeb majnuntolning oldiga kelaverganidan Mirzaterakning g'ashi kelibdi. U takabburlik bilan: “Yonimga savlatimdan qorqib, uncha muncha odam kela olmaydi. Sening oldindan odam arimaydi. Seni nazar pisand qilishmaydimi?”, – debdi. Majnuntol unga: “Sen kibru havo bilan osmonga intilasan. Men bolsam meni ostirgan zaminga qattiq boglanganman. Unga hurmatda-yu tazimda bolaman. Yonimga ko'plab kishilarning kelishi balkim, ana shu kamtarligimdandir”, – debdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga oy va hafta mavzusidan kelib chiqib o'rgatishimiz kerak. Bular “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida belgilab berilgan. May oyi uchun ham “Nido” dostonini o'rgatishimiz. Oz bo'lsa ham sodda tarzda urush fojealarini o'rgatishimiz mumkin. Bilamizki nido nomli dostonida ham urush paytida bo'lib o'tgan jarayonlar bayon qilingan. Urushga erkaklarni jalb qilish va ularni oila a'zolarini hayoti

tasvirlangan. Bu orqali bolalarni hozirgi tinch yurtimizni qadrlash va shart sharoitlarni to'g'ri qo'llash orqali biror yaxshi kasb egasi bo'lib yetishiga hissa qo'shishimiz kerak.